



International Conference of Economics, Finance and Accounting Studies

International Conference of Economics, Finance and Accounting Studies is a double-blind peer-reviewed, open-access journal published to reach excellence on the scope. It considers scholarly, research-based articles on all aspects of economics, finance and accounting. As an international congress aimed at facilitating the global exchange of education theory, contributions from different educational systems and cultures are encouraged. It aims to provide a forum for all researchers, educators, educational policy-makers and planners to exchange invaluable ideas and resources.

ISHLAB CHIQRISH KORXONALARIDA MAHSULOT SIFATINI BOSHQARISH YO‘LLARI

X. Z. Uzoqov

Samarqand davlat arxitektura – qurilish universiteti
“Biznesni boshqarish” kafedrası magistranti

Annotatsiya. Ushbu maqolada Samarqand davlat arxitektura-qurilish universiteti "Biznesni boshqarish" kafedrası magistranti X. Z. Uzoqov tomonidan ishlab chiqarish korxonalarida mahsulot sifatini boshqarishning ahamiyati va metodlari tahlil qilingan. Mahsulot sifatini boshqarish jarayonida muhandis-texnik, tashkiliy-texnologik, nazorat va boshqa jarayonlarning o'zaro bog'liqligi, shuningdek, mahsulot sifatini oshirish va ta'minlash uchun zarur tadbirlar ko'rib chiqiladi. Maqolada sifatni boshqarishda amalga oshiriladigan vazifalar, tadbirlar va ularni amalga oshirishda e'tibor qaratilishi kerak bo'lgan omillar ta'riflanadi. Shu bilan birga, raqobatbardoshlik va mahsulot sifatining o'zaro bog'liqligi hamda ularni boshqarish tizimlarining hududiy miqyosda amalga oshirilishi ko'rib chiqiladi. Mahsulot sifatini boshqarish tizimlari va ularni takomillashtirishga oid xalqaro tajribalar ham keltirilgan.

Kalit so‘zlar: Mahsulot sifati, boshqarish tizimi, raqobatbardoshlik, texnologik jarayonlar, hududiy boshqaruv, sifatni oshirish, tashkiliy tadbirlar, ishlab chiqarish.

Kirish

Mamlakatimiz qurilish korxonalarida ishlab chiqarishni rivojlantirish va yuksak darajaga kutarish uchun uni boshqarish kerak. «Boshqarish» iborasini mahsulot sifatiga qullaganda, mahsulot sifati va uning raqobatbardoshligini doimiy nazorat qilish, uni belgilovchi shartlari va omillarini maqsadga muvofiq ta'sir qildirish yullari bilan mahsulot sifatini loyihalashtirish, ishlab chiqarish va foydalanishda uning zaurur darajada urnatilishini, ta'minlanishini va saklanishini tushunmok kerak.

Mahsulotning sifatini boshqarish operatsiyalari muxandis-texnik, tashkiliy-texnologik, nazorat va boshqa jarayonlarning uzaro bog'liqligi majmuasini tashkil etuvchi tartib doirasida olib boriladi.

Mahsulot sifatini boshqarishda quyidagi vazifalar amalga oshiriladi:

- mahsulot sifatini oshirishni rejalashtirish va bashorat qilish;
- mahsulot loyihasini chizish va ishlab chiqarishga joriy etish;
- mahsulot sifatini moddiy-texnik tomondan ta'minlash;
- ishlab chiqarishni texnologik tayyorlash;
- mutaxasislarni tanlash, joylashtirish, o'qitish va tarbiyalash;
- mahsulot sifatini oshirishni rag'batlantirish;
- mahsulot sifatini nazorat qilish;

Mahsulot sifatini boshqarish uning xossalari, texnologik jarayonlarning ixtisoslashtirish

xususiyatlari, ishlab chiqarishni tashkil etish shakllari va usullarini hisobga olgan holda bajariladi. Mahsulot sifatini yaxshilashga oid vazifalar va tadbirlar tuzatilayotganda ularni amalga oshirish imkoniyatlari va maqsadga mofiqligi texnikaviy-iqtisodiy jixatdan asoslanadi. Buning uchun quydagilar asos qilib olinadi:

- ishlab chiqarishlangan mahsulot sifatiga bulgan talablar va kelgusida uni takomillashtirish imkoniyatlari;
- mahsulot sifat darajasini baholash;
- ishlab chiqarilgan mahsulotda uchragan nuqsonlarni yuzaga chiqarish va tahlil etish;
- ilg'or korxonalarining mahsulotlari bilan taqqoslash. Mahsulot sifatini yaxshilashga oid tadbirlar majmuasiga quydagilar kiradi:
- mahsulotning sifat kursatkichlarini yaxshilashga qaratilgan asosiy tajriba va loyihalashtirish ishlari hamda tashkiliy-texnikaviy tadbirlar;
- ishlab chiqarish texnikasi va texnologiyasini takomillashtirishga oid tadbirlar;
- mahsulot sifatini oshirish buyicha o'tkaziladigan ilmiy-tadqiqot, tajriba va loyihalashtirish yuzasidan ilmiy-tekshirish, loyihalashtirish tashkilotlariga beriladigan topshiriklar;
- standartlarni uzlashtirish, ularga rioya kilish, buyumlarni unifikatsiyalashtirish, yukori sifatli mahsulot ishlab chikarish, nuksonlarning oldini olish va iste'molchilar tomonidan buladigan noroziliklarni kamaytirish buyicha tadbirlar.

Bu kabi tadbirlar o'z vaqtida bajarilishini tula-tukis ta'minlash uchun ularning bajarilish muddatlari, mas'ul kishilar, muayyan xarajatlar va ularning iqtisodiy samaradorligi, raqobatbardoshligi xamda boshqa kursatkichlar aniqlanadi.

Ma'lumki, raqobat va rakobatbardoshlik o'rtasida dialektik aloqadorlik mavjud bulib, biri ikkinchisidan kelib chiqadi.

Raqobat korxonalar (firma)larni rakobatbardosh tovarlar ishlab chikarishga va xizmatlar kursatishga undaydi.

Raqobatbardoshlik nisbiy o'lchov bo'lib, xususiyati shundan iboratki, uni raqobat predmeti (mahsulot raqobatbardoshligi)ga nisbatan xam qullash mumkin.

Raqobatbardoshlik aynan bozorda kuzatiladi va tovarlarning iste'molchi extiyojlariga muvofik kelishi solishtirib va tekshirib kuruladi.

Ana shunda tovarning raqobatbardoshligi real xaridni amalga oshirayotgan xaridor uchun jozibadorlik darajasini kursatadi.

Rivojlangan bozor iqtisodiyotiga ega ko'pgina xorijiy mamlakatlarda o'tgan 15-20 yil davomida mahsulot sifatini boshqarish tizimini yaratish, takomillashtirish va sertifikatlashga e'tibor kuchayyotganligi kuzatildi, sifatga nisbatan yangicha boshqaruv tafakkuri shakllandi. Buning asosida yalpi sifat boshqaruvi vujudga keldi.

Bunday sifat boshqaruvi nafaqat yirik qurilish korxonalari, balki o'rta va kichik korxonalarda ham qo'llanilmoqda.

Hududlarda sifat boshqaruv tizimlari kontseptsiyasi yo'nalishlarini hududda sifatni boshqarish bo'yicha faoliyatni yo'lga qo'yish, rivojlantirish va tashkil etishning tizimli mexanizmi ko'rinishida amalga oshirish mumkin. Bunday tizimli mexanizmni hududiy miqyosda sifat boshqaruvi tizimlarining asosiy tamoyillaridan foydalanish kontseptsiya doirasida qo'rish mumkin.

Birinchi tamoyil – boshqaruv maqsad va vazifalarining ustivorligi, hududning ijtimoiy-iqtisodiy tizimini boshqarishda sifatni ta'minlash.

Sifat vazifalari hududiy miqyosda biznes jarayonlarni boshqarishda va sanoat majmualarini

ma'muriy boshqarishda birlamchi ahamiyatga ega. Sifat masalalari hududlar miqyosda amalga oshiriladigan barcha boshqaruv bosqichlari va darajalari, boshqaruv funktsiyalarida e'tiborga olinishi kerak.

Ikkinchi tamoyil – sifatning jarayonlarni boshqarish bilan integratsiyalashuvi tamoyili.

Mazkur tamoyilda hudud miqyosda sanoat majmualarini boshqarishning barcha tizimlari sifat tizimini ta'minlash, qo'llab-quvvatlash va takomillashtirish maqsad va vazifalari atrofida integratsiyalashishi kerak. Ushbu tamoyilga muvofiq hududni kvazikorporatsiya sifatida boshqarish jarayonlarining asosi sifat boshqaruvi tizimidir. Hududning iqtisodiy tizimini boshqarishda bu muhim integratsiyalovchi bo'g'in bo'lib xizmat qiladi.

Uchinchi tamoyil – zanjirli reaksiya tamoyili. Yuqori sifat yaratiladigan mahsulot va xizmatlarning iste'mol qilinish imkoniyatlarini kengaytiradi, pul muomalasi barqarorligini oshiradi, aholi hayot darajasining ko'tarilishiga hissa qo'shadi, ishlab chiqarishning takomillashuvini ta'minlaydi, mehnat sharoitlari va savdo, atrof muhitni muhofaza qilish va aholi salomatligini ta'minlashga hissa qo'shadi.

To'rtinchi tamoyil – sifat boshqaruvi tizimida amalga oshiriladigan usullar, yondoshuvlar sifat institutlarini rivojlanishining biznes jarayonlarni tashkil etish shakllari va usullari rivojidan oldinlab ketishi tamoyili.

Beshinchi tamoyil – sifat boshqaruvi tizimlarining o'z-o'zini tashkil etish tamoyili.

Oltinchi tamoyil – sifat boshqaruviga yondoshishda ikkitaraflamalik tamoyili.

Bir tomondan sifat boshqaruv ob'ekti bo'lsa, boshqa tomondan sifat boshqaruv funktsiyasi hamdir. Shundan kelib chiqib, hudud miqyosida sifat boshqaruvi tizimini tashkilotning sifatni boshqarish tizimini tartibga soluvchi ta'sir sifati qabul qilish mumkin, boshqa tomondan esa, sifat boshqaruvi tizimi hududni boshqarish tizimining bir elementi hamdir.

Mazkur tamoyillarni asosiy tamoyillar sifatida belgilagan holda muallif hududda sifat boshqaruv tizimini rivojlantirishning tashkiliy va iqtisodiy ta'minlashning mantiqiy va tuzilmaviy modelini taklif etadi.

Xulosa:

Mahsulot sifatini boshqarish tizimi korxonada faoliyatining muhim elementlaridan biridir. Bu jarayonni muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun mahsulotning sifatini oshirish, ishlab chiqarishni texnologik tayyorlash va mutaxassislarni tanlash kabi vazifalar alohida ahamiyatga ega. Raqobatbardoshlikni oshirish, mahsulot sifatining yuqori darajaga ko'tarilishi va uning bozor talablariga moslashuvi kompaniyaning muvaffaqiyatini ta'minlaydi. Maqolada ishlab chiqarish jarayonlarini takomillashtirish va mahsulot sifatini boshqarishning samarali usullari, shuningdek, raqobatbardoshlikni oshirishga qaratilgan amaliy tavsiyalar keltirilgan. Hududiy miqyosda sifat boshqaruvi tizimini tashkil etish, ishlab chiqarish tizimlarini takomillashtirish va xalqaro standartlarga moslashish jarayonlari muvaffaqiyatli amalga oshirilganda, mahsulot sifatini yaxshilash imkoniyatlari kengayadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentning "Mahallalarda tadbirkorlikni rivojlantirish aholi bandligini ta'minlash va kambag'allikni qisqartirish bo'yicha davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlari to'g'risida"gi 2021 yil 3 dekabrda PF-29 son farmoni.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentning "O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va sanoat vazirligi huzuridagi Kichik biznes va tadbirkorlikni rivojlantirish agentligi faoliyatini tashkil etish to'g'risida"gi 2019 yil 13 avgustda PQ-4417-son qarori.
3. Normaxmatov R., Saidaliyev X. Standartizatsiya i kachestvo. J. Sel'skoye xozyaystvo Uzbekistana, 1987, № 9.

4. Щептова С.Е. Менеджмент и экономика качества: От естественного к формальному, от формального к естественному.- М.: КомКнига, 2007.- 512с.
- 5.Зайнутдинов Ш.Н. Методология оценки социальной эффективности инновационной деятельности. Сб. науч. тр. Ташкент, 2012.